

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**F.A.Yuldashev**

Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini  
gumanizatsiyalash masalalari ..... 218

**I.A.Asatulloev**

Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili ..... 223

**D.Sh.Sagdullayeva**

Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari ..... 228

**S.S.Sodiqov**

Yoshlarda faol pozitsiyani shaklantirishning milliy-tarixiy asoslari ..... 234

**I.A.Hamdamov**

Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi ..... 240

**H.X.Xakimov**

Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов

Узбекистана в период первого ренессанса ..... 245

**Q.H.Boymirzayev**

Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi  
ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni ..... 252

**B.M.Qandov, N.A.Abduveita**

Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari ..... 256

**E.T.Qalqanov**

Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ..... 261

**Sh.X.Tog'ayev**

Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning  
manbalari va vositalari ..... 266

**I.A.Ikramov**

Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi ..... 272

**V.B.Zayniddinova**

Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi ..... 277

**J.M.Miraxmedov**

Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili ..... 281

**B.X.Mirzaraximov**

O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining  
ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari ..... 285

**D.E.Normatova**

Ekzistensializm – hayot falsafasi ..... 293

---

**SIYOSAT****I.A.Raximov**

"Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos  
mexanizmlari" ..... 297

**M.H.Rustamaliyev**

Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi ..... 302

**N.B.Dexkanov**

Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ..... 306

**M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev**

Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi ..... 312

**J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva**

Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish ..... 323

**J.K.Yusubov, D.A.Xusanova**

Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining  
muhim omili ..... 327

---

**TARIX****A.Sharafiddinov**

Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan  
(XIX asr oxiri XX asr boshlari) ..... 331



УО'К: 316.334:339.923(595)

**MAMLAKATIMIZ IJTIMOIY RIVOJLANISHIDA JAHON DAVLATLARI TAJRIBASIDAN  
FOYDALANISH (SINGAPUR MISOLIDA)**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА СТРАН МИРА В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ НАШЕЙ  
СТРАНЫ (НА ПРИМЕРЕ СИНГАПУРА)**

**USING THE EXPERIENCE OF COUNTRIES OF THE WORLD IN THE SOCIAL  
DEVELOPMENT OF OUR COUNTRY (BY THE EXAMPLE OF SINGAPORE)**

Yusubov Jaloliddin Kadamovich<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi<sup>2</sup>

<sup>2</sup>O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya**

Bugungi kunda har bir davlat taraqqiyotning yuksak darajasiga erishish, rivojlangan mamlakatlardan qatoridan o'rinn olish uchun intilmogda. Bunda rivojlanishning yuqori natijasiga erishgan mamlakatlarning tajribasidan foydalanish ham katta natijalarga olib keladi. Mamlakatimizda ham ijtimoiy rivojlanishning yuqori natijalariga erishish uchun bir qator islohotlar, yangilanishlar jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu borada barcha sohalarni isloh qilish bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan ham unumli foydalanimoqda. Mazkur maqolada jahonning rivojlangan mamlakatlari, xususan, Singapur davlatining tajribasi asosida yurtimizni yanada taraqqiy ettirish, mavjud muammolar yechimini topish haqida fikrmulohazalar va amaliy takliflar keltirilgan. Ushbu tadqiqot ishida tarixiylik, uzviylik, izchillik, kuzatish, taqqoslash, o'xshatish metodlaridan foydalanildi. Mavjud muammolarning yechimi sifatida bir qator takliflar keltirildi. Singapur davlati tajribasi asosida yurtimizni yanada rivojlanishish bo'yicha aniq xulosalar berildi.

**Аннотация**

Сегодня каждая страна стремится достичь высокого уровня развития, занять место среди развитых стран. Использование опыта стран с высокими показателями развития также принесет большие результаты. В целях достижения высоких результатов социального развития в нашей стране проводится ряд реформ и обновлений. В этом отношении, помимо реформирования всех сфер, эффективно используется опыт развитых стран. В данной статье представлены мнения и практические предложения по дальнейшему развитию нашей страны, поиску решений существующих проблем, основанные на опыте развитых стран мира, в частности, Сингапура. В исследовательской работе использовались методы историчности, связности, последовательности, наблюдения, сравнения, аналогии. В качестве решения существующих проблем был выдвинут ряд предложений. На основе опыта Сингапура были даны конкретные выводы по дальнейшему развитию нашей страны.

**Abstract**

Today, every country strives to achieve a high level of development and take a place among developed countries. Drawing on the experience of countries with high development indicators will also bring great results. In order to achieve high results in social development, a number of reforms and updates are being carried out in our country. In this regard, in addition to reforming all areas, the experience of developed countries is effectively used. This article presents opinions and practical proposals for the further development of our country, finding solutions to existing problems based on the experiences of developed countries around the world, in particular Singapore. The research work used methods of historicity, coherence, consistency, observation, comparison, and analogy. A number of proposals have been put forward to solve existing problems. Based on the experience of Singapore, specific conclusions were given for the further development of our country.

**Kalit so'zlar:** bozor iqtisodiyoti, "O'zbek modeli", modernizatsiya, Singapur, korrupsiya, jinoyatchilik, investitsiya, dual ta'lim, turizm.

**Ключевые слова:** рыночная экономика, "узбекская модель", модернизация, Сингапур, коррупция, преступность, инвестиции, дуальное образование, туризм.

**Key words:** market economy, "Uzbek model", modernization, Singapore, corruption, crime, investment, dual education, tourism.

## KIRISH

Ijtimoiy hayot tobora jadallahib borayotgan bugungi zamonda dunyodagi har bir davlat rivojlanish va yangilanish jarayonlarini amalga oshirmoqda. Jahonning siyosiy xaritasida 200 dan ortiq mamlakat bo'lib, jumladan, jahon hamjamiyati tomonidan mustaqilligi rasman tan olingen 195 ta suveren davlat mavjud. Demak, bugungi kunda mavjud 200dan ortiq davlatlarning maqsadi bitta: yuksak taraqqiyot va ijtimoiy rivojlanishga erishish. Ammo biz bu davlatlarning hammasini ham rivojlanish darajasiga erishgan deya olmaymiz. O'z navbatida dunyodagi mavjud davatlarni rivojlanish darajasiga ko'ra quyidagilarga ajratamiz:

- Rivojlangan mamlakatlar;
- Rivojlanayotgan mamlakatlar;
- Eng kam rivojlangan mamlakatlar. Bundan kelib chiqadiki, hamma mamlakatlar ham to'liq rivojlanish darajasiga erishgan emas.

Bizning mamlakatimiz ham mustaqillikka erishgandan so'ng rivojlanish yo'liga kirdi va bir qator sohalarda islohotlarni amalga oshirdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol murakkab darajada edi. Mustaqilligini qo'lga kiritgan yurtimiz sovet tuzumi davridagi iqtisodiyot asosini tashkil etgan rejalashtiruvchi siyosatdan voz kechib bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladi.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, dunyodagi barcha mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Har bir davlat o'zining tarixiy taraqqiyot yo'li, an'ana va qadriyatlari, milliy o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'z modelini ishlab chiqishi lozim. O'zbekiston ham ana shu umumi qonuniyat mezonlari asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishga qaratilgan o'z yo'lini tanlab oldi.

Bozor iqtisodiyoti – bu iqtisodiy tizim bo'lib, unda investitsiyalar, ishlab chiqarish va iste'molchilarga taqsimlash bo'yicha qarorlar talab va taklif kuchlari tomonidan yaratilgan narx signallari asosida amalga oshiriladi. Ya'ni bunda davlat bozor munosabatlariga aralashmaydi. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'liga doir Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil quyidagilardan iborat edi:

1. Iqtisodning siyosatdan ustunligi, uni mafkuradan xoli etish.
2. Davlat bosh islohotchi va iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori.
3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning tengligi.
4. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhitoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, izchil ravishda o'tish. Bu tamoyillar taraqqiyotning "O'zbek modeli"ni tashkil qildi.

Har bir davlat iqtisodiyotini isloh qilishning asosiy strategik maqsadi, avvalo, kishilar turmushi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni barpo etishdan iboratdir. Iqtisodiyotning to'g'ri va samarali yo'lda qo'yilishi mamlakat rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Boshqa mamlakatlardan farqli ravishda O'zbekistondagi modernizatsiya jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan edi.

Yurtimizning 32 yillik mustaqil hayotida juda ko'p modernizatsiya jarayonlari, yangilanishlar va islohotlar amalga oshirildi. Mustaqil diyorimiz jahonning ko'pgina mamlakatları bilan do'stlik va hamkorlik aloqalarini yo'la qo'ydi, bir qancha xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

Bugun yurtimizning "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi Renessans" kabi ulug' va ezgu maqsadlari bor. Ana shunday ulug' maqsadlarga erishishda yurtimizni yanada isloh etishimiz, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishimiz lozim. Bunda esa dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasidan andoza olgan holda uni mamlakatimizga joriy etishimiz ijtimoiy rivojlanishning yuksak cho'qsisiga erishishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Zero, muhtaram yurtbosimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bizning ustuvor vazifamiz – inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta'minlashning asosiy shartidir" [1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanishni Singapur davlati misolida tahlil qilamiz. Bunda tarixiylik, uzviylik, izchillik, kuzatish, taqqoslash, o'xshatish metodlaridan foydalanildi.

## SIYOSAT

Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanishni Singapur davlati misolida tahlil qilamiz.

XX asning 60-yilarida oddiygina oroldan 35 yil ichida Osiyodagi yirik davatlardan biriga aylana olgan Singapur mustaqillikka erishgan vaqtida kichkina, qashshoq, hattoki ichimlik suvini ham sotib oladigan davlat edi. Mamlakatni rivojlantirishda 1959-1990-yillardagi Singapur hukumatining o'rni katta bo'lgan. Ushbu davrda hukumatning yangi iqtisodiy rivojlanish strategiyasining maqsadi Singapurni Janubi-sharqiy Osiyoning moliyaviy va savdo markaziga aylantirish, shuningdek, mamlakatga xorijiy investorlar e'tiborini jalb qilish asosida shakllantirildi. "Biz har bir investorni salom bilan kutib oldik... Biz ularga ishlab chiqarishni boshlashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdik", [2] – deya ta'kidlagan edi o'sha davrdagi bosh vazir Li Kuan Yu. Mamlakatni rivojlantirishda investorlarning o'rni katta bo'ladi. Shuning uchun ham Singapur davlati har bir investorni "salom berib" kutib oldi. Bizning mamlakatimizda ham investorlar ana shunday kutib olinishi va ular uchun barcha sharoitlarni yaratib berishi kerak.

Singapurning mustaqillik yillarda uning iqtisodiyotiga raxna solayotgan assosiyo to'siqlardan biri bu korrupsiya bo'lgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyat hayotiga aloqador barcha qarorlarni qabul qilish jarayonini soddashtirish hamda qonunchilikdagi har qanday ziddiyat va ko'p ma'noli talqinlarning oldini olishdan boshlandi, natijada esa eng sodda huquqiy qoidalardan tortib kichik va o'rta biznesni litsenziyalashga ruxsat berish, uni bekor qilishgacha bo'lgan aniq va ravshan qonunchilik tizimi yaratildi.

Singapur davlatining iqtisodiy taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan ikkinchi muammo uyushgan jinoyatchilik edi. Mamlakatda bir necha jinoiy guruhlardan tashkil topgan uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash olib borilgan, buning uchun politsiya shaxsiy tarkibi tubdan yangilangan va tarkibdagi aksar malay politsiyachilari bo'lgan tarkib xitoyliklar bilan almashtirilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham jinoyatchilik, ayniqsa, voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarlik va jinoyatchilik hollari ko'payib ketdi. Bu juda achinarli hol. Bu kabi holatlarning oldini olishda nafaqat qat'iy qonunlar, balki ma'naviyat va tarbiya ham muhim rol o'ynaydi. Yoshlar orasidagi jinoyatchilik holatlarining oldini olish uchun balog'at yoshidagi o'smirlarni muntazam nazorat ostiga olish, ularning o'zini tutishi va xatti-harakatidan doimo ogoh bo'lish lozim. Yoshlarni jinoyatchilik, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar, ularning ayanchli taqdiri, qanday oqibatlarga olib kelishini o'zida aks ettirgan videoroliklar yoki shunday shaxslar bilan tanishtirib borish kabi ishlarni muntazam yo'nga qo'yish kerak. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishni esa faqatgina mazkur fan o'qituvchilariga emas, balki qaysi fan mutaxassisi bo'lishidan qat'i nazar, har bir pedagog va shu kabi mas'ul lavozimdagи shaxslarga ham yuklash lozim.

Singapur davlatida hukumat, eng avvalo, mamlakatdagi mehnatkashlarda qat'iy intizomni o'rnatish, ishga nisbatan jiddiy mas'uliyatni shakllantirish, korxonalar boshqaruvchilarida esa istiqboldagi mavaffaqiyatlarni tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirishni birinchi o'ringa qo'ydi. Bizga ma'lumki, ishning qanday bajarilganligi uning natijasiga qarab belgilanadi. Har bir davlat taraqqiyotida bu omil juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham Singapur hukumatining mazkur sohaga e'tibori katta bo'lgan.

Mamlakatimiz mazkur yo'nalishiga e'tibor beradigan bo'lsak, bizda ishning natijasidan ko'ra uni qanday qilib bo'lsa ham bajarish va zimmasidagi vazifadan ozod bo'lish maqsadi ko'proq ustunlik qiladi. Singapurning mana shu yuritgan siyosatini ham o'zimizga joriy etsak, o'laymanki, yaxshi natija beradi. Ya'ni qanday sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar, barcha mehnatkashlarda, eng birinchi navbatda, o'z ishiga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish lozim. Albatta, ishning samarali natija berishini ta'minlaydigan sharoitlarni ham yaratish va ularni o'z ishiga taalluqli bo'lmagan boshqa ishlarga jalb etishdan saqlashimiz kerak. Bunda iqtisodiy jihat ham muhim bo'lib, har bir mehnatkashga mehnatiga yarasha haq to'lash lozim. Mazkur omil ishchilardagi mas'uliyat hissini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Singapurda xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilganda uni strategik va eng foydali sohaga kiritish yoki zarur tovarlarga almashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. Biz ham kiritilayotgan investitsiyalarni eng foydali va yuqori natija beradigan sohalarga jalb etishimiz lozim. Masalan, turizm sohasi. Turizm har bir davlat, ayniqsa, tarixiy va madaniy yodgorliklari ko'p bo'lgan mamlakatlarga katta foyda keltiradi. O'zbekiston ham tarixiy yodgorliklarga, go'zal va diqqatga sazovor joylarga boy mamlakat hisoblanadi. Shundan kelib chiqib turizm bizning yurtimiz uchun eng foydali sohalardan biridir. Ana shunday sharoitda faqatgina xorijiy investitsiyalarni emas, balki

mahalliy investorlarni ham bunga jalg qilish zarur. Yurtimizga tashrif buyuradigan sayyoohlар uchun eng zamonaviy, qulay va oson xizmat ko'rsatish tizimini yaratish kerak. Ularning e'tiborini tortadigan, o'zgacha ko'rinishga ega bo'lgan maskanlar barpo etishimiz lozim. Keladigan har bir sayyoohning yurtiga mammun holda qaytib ketishini ta'minlashimiz zarur. Ana shunda yurtimizga keluvchi turistlarning soni ortib boraveradi.

Singapur davlat siyosati hamisha har qanday sohada amaldorlarining fuqarolar bilan o'zaro birlashib harakat qilishi tarafdoi bo'lgan. Singapurda amaldor soliqlar to'lagan holda uni yollagan oddiy fuqaro uchun xizmat qiladi, degan fikr shakllantirilgan edi. Mamlakatdagi bosh vazir ham ishiga shunday yondashgan, uning o'zi shu mansabga chiqqanda o'zidan boshqa mansabdorlardan ham fuqarolar oldidagi mas'uliyatni unutmaslikni qayta-qayta talab qilgan. Bu borada bizning mamlakatimizda boshqacha holat kuzatiladi. Mazkur sohani isloh etishda o'zaro ishonchga asoslangan siyosat yuritish muhim hisoblanadi. Ya'ni fuqarolar davlat amaldorlariga ishonsin, ularni o'z muammolarini hal qiladigan, doim xalq xizmatida bo'ladigan shaxs sifatida ko'rsin. Ana shunda davlat siyosatida o'zaro ishonch qaror topib, turli xil muammoli vaziyatlar kuzatilmaydi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Demak, Singapur davlatining rivojlanish tajribalaridan kelib chiqib holda mamlakatimizni ijtimoiy yuksaltirish uchun umumiy takliflarim:

- zamon talablari va dunyo tajribasidan kelib chiqib bozor iqtisodiyotidan aralash iqtisodiyotga asta-sekinlik bilan o'tish;
- yurtimizga tashrif buyurayotgan har bir investorni va mahalliy investorlarni ham iqtisodiyotning eng asosiy va ko'p foyda keltiradigan yo'naliishlariga jalg etish;
- investorlarning hech qanday iqtisodiy to'siq va muammolarga duch kelishining oldini olish;
- yurtimizdagi odob-axloq qoidalari va eng oddiy holatlarni ham o'z ichiga oluvchi aniq va qat'iy qonunchilik tizimini yaratish;
- voyaga yetmaganlar orasida eng ko'p uchrayotgan holatlarni o'rganib, ana shunday huquqbazarlik va jinoyatlar, ular uchun qo'llanadigan sanksiyalar, ularning kelajakda olib keladigan oqibatlarini o'z ichiga qamrab olgan maxsus darsliklarni, videoroliklar ishlab chiqish va ularni davlat ta'limga dasturlariga kiritish;
- voyaga yetmaganlar orasida eng ko'p uchrayotgan huquqbazarlik va jinoyatlar, ularning salbiy oqibatlari haqida qo'shimcha dars mashg'ulotlarini yo'nga qo'yib, o'quvchilar bilan muntazam tanishtirib borish;
- mamlakatimiz mehnatkashlarida ishning yuqori natijadorligiga erishish va mas'uliyat hissini oshirish uchun zarur choralarini ko'rish;
- oly ta'limga muassasalarida texnika, qishloq xo'jaligi va shu kabi amaliyot asosiy o'rinni egallaydigan yo'naliishlarda ma'ruzalarni olib borishda soha mutaxassislarini jalg qilish;
- amaliyot bilan uzviy aloqadorlikni ta'minlash va muntazam nazorat ostiga olish;
- ta'limga tizimidagi rivojlantirish uchun mas'ul xodimlar lavozimiga shu sohada ko'p yillar xizmat qilgan, mazkur sohadagi muammolardan xabardor bo'lgan mutaxassislarini tayinlash;
- ta'limga tizimini rivojlantirish uchun jahoning rivojlangan mamlakatlari tajribasini asl holicha milliy ta'limga tizimimizga joriy etish;
- yurtimizning turizm salohiyatini yanada oshirishda sayyoohlар uchun qulay, oson, zamonaviy xizmat ko'rsatish tizimini yo'nga qo'yish;
- milliy mentalitet, qadriyat va an'analarimizdan kelib chiqqan holda yangi turistik zonalarni tashkil qilish;
- fuqarolarda davlat amaldorlariga nisbatan ishonch tuyg'usini kuchaytirishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish va boshqalar.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bu borada yana ko'p holatlarni o'rganish va tahlil qilish mumkin. Eng muhimi, ana shu tahlil qilingan vaziyatlarni o'zimizda ham qo'llash va yuqori rivojlanish bosqichiga erishishdir. Biz yuksak taraqqiyot va rivojlanish darajasiga erishmoqchi ekanmiz, bunda jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur tahlil qilishimiz va o'zimizga joriy qilishimiz lozim. Buni mamlakatda olib borilayotgan siyosat bilan uyg'unlashtirib yuborish kerak.

## SIYOSAT

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mualliflar jamoasi. Ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy konsepsiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2021.
3. Xojiyev T. Yangilanish va modernizatsiya jarayonlarining ijtimoiy-ma'naviy mohiyati. Ilmiy-tahliliy axborot jurnali. 2016-yil 3-son. ISSN 2181-7308.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni O'RQ-637-son. 23.09.2020. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. [https:// wikipedia.org](https://wikipedia.org).